



"OILA VA XOTIN-QIZLAR" ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

MARKAZIY OSIYODA JAMIYAT, GENDER VA OILA

xalqaro ilmiy jurnalı

*Society, Gender and Family in
Central Asia*
international academic peer reviewed journal

*Общество, гендер и семья в
Центральной Азии*
международный научный рецензируемый журнал

2024/1 (10)

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining 2021-yil 18-iyundagi 0996-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma”si olingan.

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar RO‘YXATI (2019)ga pedagogika, psixologiya, tarix va falsafa fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari himoyasi uchun ilmiy maqolalar e’lon qilinishi mumkin bo‘lgan jurnal sifatida ro‘yxatga olingan.

DOI: 26739/2118-9998

ISSN 2049-3630

TOSHKENT

TAHRIR HAY'ATI RAISI:

EGAMBERDIYEVA Nodira Melibayevna (*Bosh muharrir*) – pedagogika fanlari doktori, professor.

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

NARBAYEVA Tanzila Kamalovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor.

SAIDOVA Galina Karimovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

SHOUMAROV G'ayrat Baxramovich – psixologiya fanlari doktori, professor.

ABDURAMANOV Xamid Xudaybergenovich (*Bosh muharrir o'rinnbosari*) – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

BEKMURADOV Adham Sharipovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

MA'RUFובה Gulnora Mahmudovna – Oly Majlis Senatining Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi a'zosi, senator.

MUSURMANOVA Aynisa Musurmanova – pedagogika fanlari doktori, professor.

RAHIMOVA Nigina Xayrullayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

SAIDOV Akmal Xolmatovich – yuridik fanlari doktori, professor.

YAKUBJANOVA Dilobar Batirovna – pedagogika fanlari doktori, dotsent.

TASHMUXAMEDOVA Diloram Gafurjanovna – tibbiyot fanlari nomzodi.

UMIRZAKOV Baxodir Xamidovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

ZIYAYEV Azamat Xamidovich – tarix fanlari doktori, professor.

ABDUSAMATOV Xasanboy Usmonjon o'g'li – psixologiya fanlari doktori.

TO'RAQULOV Ulug'bek Xolbutayevich – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (*PhD*)

ПРЕДСЕДАТЕЛЬ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Эгамбердиева Нодира Мелибаевна (*Главный редактор*) – доктор педагогических наук, профессор.

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Нарбаева Танзила Камаловна – доктор социологических наук, профессор.

Сайдова Галина Каримовна – доктор экономических наук, профессор.

Шоумаров Гайрат Бахрамович – доктор психологических наук, профессор.

Абдураманов Хамид Худайбергенович (*Заместитель главного редактора*) – доктор экономических наук, профессор.

Бекмурадов Адхам Шарипович – доктор экономических наук, профессор.

Маъруфова Гулнора Махмудовна – сенатор, член Комитета Сената Олий Мажлиса по вопросам женщин и гендерного равенства.

Мусурманова Айниса Мусурмановна – доктор педагогических наук, профессор.

Рахимова Нигина Хайруллаевна – доктор экономических наук, профессор.

Сайдов Акmal Xolmatovich – доктор юридических наук, профессор.

Якубжанова Dilobar Batirovna – доктор педагогических наук, доцент.

Ташмухамедова Diloram Ghafurjanovna – кандидат медицинских наук.

Умирзаков Bakhodir Khamidovich – доктор экономических наук, профессор.

Зияев Azamat Khamidovich – доктор исторических наук, профессор.

Абдусаматов Xasanboy Usmonjon ugli – доктор психологических наук.

Turakulov Ulugbek Holbutayevich – доктор философии педагогических наук (*PhD*)

THE CHAIRMAN OF THE EDITORIAL BOARD:

Egamberdiyeva Nodira Melibayevna

(*Editor-in-Chief*) – Doctor of Pedagogical sciences, Professor.

MEMBERS OF THE EDITING BOARD:

Narbayeva Tanzila Kamalovna – Doctor of Sociological sciences, Professor.

Saidova Galina Karimovna – Doctor of Economic sciences, Professor.

Shoumarov Ghayrat Bakhrayevich – Doctor of Psychological sciences, Professor.

Abduramanov Khamid Khudaybergenovich (*Deputy Editor-in-Chief*) – Doctor of Economic sciences, Professor.

Bekmuradov Adkham Sharipovich – Doctor of Economic sciences, Professor.

Marufova Gulnora Makhmudovna – Senator, Member of the Senate Committee of the Oly Majlis on Women and Gender Equality.

Musurmanova Aynisa Musurmanovna – Doctor of Pedagogical sciences, Professor.

Rakhimova Nigina Khayrullayevna – Doctor of Economic sciences, Professor.

Saidov Akmal Kholmatovich – Doctor of Juridical sciences, Professor.

Yakubjanova Dilobar Batirovna – Doctor of Pedagogical sciences, Associate Professor.

Tashmukhammedova Diloram Ghafurjanovna – Candidate of Medical sciences.

Umirzakov Bakhodir Khamidovich – Doctor of Economic sciences, Professor.

Ziyayev Azamat Khamidovich – Doctor of Historical sciences, Professor.

Abdusamatov Khasanboy Usmonjon ugli – Doctor of Psychological Sciences.

Torakulov Ulugbek Holbutayevich – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (*PhD*)

XALQARO TAHIR HAY'ATI:

Doktor Rashmini Koparkar,

Rossiya va Markaziy Osiyon

o'rganish markazi dotsenti

Xalqaro tadqiqotlar maktabi,

Javoharlal Neru universiteti,

Nyu-Dehli, Hindiston

Artamonova Yekaterina Iosifovna,

Chelyabinsk davlat madaniyat

instituti,

pedagogika fanlari doktori, professor

Doktor Priti Kesavan,

Texnologiya fakulteti boshlig'i,

London biznes va moliya maktabi,

Singapur

МЕЖДУНАРОДНАЯ

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Доктор Рашмини Копаркар,

Доцент Центра исследований

России и Центральной Азии,

Школа международных

исследований,

Университет Джавахарлала Неру,

Нью-Дели, Индия

Артамонова Екатерина

Iosifovna,

Челябинский государственный

институт культуры,

доктор педагогических наук,

профессор

Доктор Прити Кесаван,

Руководитель Технологического

факультета

Лондонская школа бизнеса и

финансов, Сингапур

INTERNATIONAL EDITORIAL

BOARD:

Dr. Rashmini Koparkar

Assistant Professor

Centre for Russian and Central Asian

Studies

School of International Studies

Jawaharlal Nehru University

New Delhi, India

Artamonova Yekaterina Iosifovna

Chelyabinsk State Institute of Culture

Doctor of Pedagogical Sciences,

Professor

Dr. Preethi Kesavan

Head, School of Technology

London School of Business and

Finance, Singapore

MENEJMENT

Abdullajanova D.S. Kadrlar zaxirasini shakllantirishda gender tenglikni ta'minlashning ijtimoiy-psixologik asoslari	4
--	---

SOTSILOGIYA

Saipova M. Migratsiya jarayonining globallashuvi: ijobiy va salbiy oqibatlar	10
Xonturayev B. Gender institutlari bo'yicha ilmiy-nazariy qarashlar va ularning ijtimoiy-iqtisodiy asoslari	16
Йулдошева У. Гендерные аспекты развития социального предпринимательства в Узбекистане	25
Hashimova G.I. Harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarini ijtimoiy himoya qilishning huquqiy asoslari va kafolatlari	32

MAHALLA VA HAYOT

Isamutdinov R.R. Mahallaning ma'naviy xavfsizlikni ta'minlashdagi ahamiyati	37
--	----

OILA VA JAMIYAT

Abdiraimova Sh.A. Yosh oilalarda ajralishlarning oldini olish yo'llari.....	44
Rahimova M. Yosh kelinlarning oilaviy hayotga moslashishi	49
Dovranova O.D. Yangi taraqqiyot bosqichida oilaviy munosabatlarning ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy negizlarini shakllantirish.....	53
Mahkamov U.A. So'z va fikr erkinligini ta'minlashda dialog muloqot vositasi sifatida.....	58

PSIXOLOGIYA

Рахимова И.И., Каримова Г.О. Психологическая диагностика социальной адаптивности студентов с нарушением слуха	64
Абидова З.А. Влияние семейного положения личности на уровень его толерантности	69
Ishonkulova N.I. Oilaviy munosabatlarda destruktiv nizolar namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari	75
Raxmonova Z.N. Ijtimoiy-individual qadriyatlar va emotsional intellekt xususiyatlari.....	80

PEDAGOGIKA

Ortikov U.X. The socio-educational model in second language acquisition.....	86
Yulchiyeva D.X. Oila barqarorligini ta'minlashda olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat	92
Аблакулов Ш.Д. Формирование профессиональных креативных компетенций у будущих педагогов-психологов	98
Mirhamidova M. Yapon xalqida tarbiyaning pedagogik asoslari	104
Safoyeva R.J. Noto'liq oila farzandlarining ijtimoiylashuvi xususiyatlari.....	109
Yakubov O.T. Bolaning ijtimoiylashuvida oilaning o'ziga xos xususiyatlari	114

TARIX

Sharipova N.A. XX asrning 40–90-yillarida O'zbekiston ta'lim tizimida gender tenglik masalalari tarixi.....	118
--	-----



Yakubov Odiljon Tolibjon o'g'li,
“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti,
tayanch doktoranti

BOLANING IJTIMOIYLASHUVIDA OILANING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada bolaning ijtimoiylashuviga ta'sir qiluvchi omillar o'r ganilgan. Shaxsnинг ма'naviy-axloqiy, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan ijtimoiylashuvida oilaning o'rniغا e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: oila, shaxsiy ijtimoiylashuv, kasbiy ijtimoiylashuv, moslashuv, yoshlar, farzand, jamiyat, ota-onा.

Аннотация. В данной статье изучаются факторы, влияющие на социализацию ребенка. В духовно-этической, социально-экономической социализации человека внимание уделяется месту семьи.

Ключевые слова: семья, личностная социализация, профессиональная социализация, адаптация, молодежь, ребенок, сообщество, родитель.

Annotation. In this article, the factors affecting the child's socialization are studied. In the spiritual-ethical, socio-economic socialization of a person, attention is paid to the place of the family.

Keywords: family, personal socialization, professional socialization, adjustment, youth, child, community, parent.

Kirish. Hozirgi kunda raqobatbardosh kadrlar yaratishning muhim omillaridan biri sifatida yoshlarning qay darajada shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashganligiga e'tibor qaratish mumkin. Yoshlarning hayotda o'z o'rnnini topishi, o'zi sevgan kasbni egallashi, madaniyatli, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk shaxs sifatida shakllanishida oilaning o'rni beqiyos. Jumladan, oilada yoshlarni kasbiy ijtimoiylashtirishning mental-etnopedagogik xususiyatlarini tahlil etish, oilaviy milliy tarbiyaning tashabbuskorlik funksiyasini aniqlashtirish, shaxsga yo'naltirilgan tarbiya jarayonining tashkiliy tuzilmasini oilada yoshlarning kasbiy ijtimoiylashuvini ta'minlashning pedagogik tizimi asosida takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi¹.

¹ Бегматова Д.М. Оилада ёшларнинг касбий ижтимоийлашувини таъминлашнинг педагогик шартшароитлари. (PhD)... дис. – Самарқанд.: 2019. – 201 б.

Maqsad va uni asoslash. Mamlakatimizda so'ngi yillarda shaxs ravnaqi, uning komilligi va inson kapitali masalasi ta'lim islohotlarining bosh maqsadiga aylanib, oilaviy tarbiyaning inson ma'naviyati assosi sifatida oilalarни tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish, uyushmagan yoshlar bilan ishslash tizimini takomillashtirishga qaratilgan islohotlar natijasida yoshlarga jamiatdagи o'z o'rnnini topishga ko'maklashish, ularning kasbiy raqobatbardoshligini ta'minlash imkoniyatlari kengaymoqda². O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017–2021-yillarda mamlakatimizni rivojlantrishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi doirasida fuqarolarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va kambag'allikni qisqartirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilanib, aholini yangi ish o'rnlari va kafolatli daromad manbai, malakali tibbiy va

² O'sha joyda

ta’lim xizmatlari, munosib yashash sharoitlari bilan ta’minalash sifat jihatidan yangi bosqichga ko’tarildi³. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni⁴da inson qadrini yuksaltirish, ma’naviy taraqqiyotni ta’minalash, inson kapitalini rivojlantirish masalalariga ham e’tibor qaratilgan. Shuningdek, oila institutini mustahkamlash, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni targ‘ib etish orqali oilalardagi sog‘lom va ma’naviy muhit barqarorligini ta’minalash kabi muhim masalalar o‘rin olgan.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi.
Oila shaxsni ijtimoiylashtirishning eng muhim institutidir. Aynan oilada insonda ijtimoiy o‘zaro munosabatlarning birinchi tajribasi shakllanadi. Dastlab oiladagi, so‘ngra, bolalar bog‘chasi va maktabdagi, ko‘cha-ko‘ydagi ijtimoiy munosabatlar orqali inson hayotida ijtimoiylashuv jarayoni vujudga keladi. Oilani shaxs uchun asosiy hayot tarbiyasining namunasi va shakli sifatida ko‘rish mumkin. Oilada ijtimoiylashuv ta’limning maqsadli jarayoni natijasida ham, ijtimoiy ta’lim mexanizmi orqali ham sodir bo‘ladi.

“Ijtimoiylashuv” tushunchasini birinchi marta amerikalik sotsiolog F. G. Keddings ilmiy muomalaga kiritgan. U sotsializatsiyani “inson ijtimoiy tabiatining rivojlanish jarayoni” deb tariflagan. E. Dyurkgeym esa “ijtimoiylashuv” tushunchasini shaxsning jamiyatga qo‘shilish bosqichi va uning jamiyat a’zosi sifatida ijtimoiy shakllanishi jarayoni bilan bog‘ladi.

Kasbiy ijtimoiylashtirish (lot. socialis – ijtimoiy) – shaxsning kasbiy shakllanishi jarayoni pedagogik shart-sharoitlarini ta’minalash demakdir. Bunda kasbiy orientatsiya va kasbiy yo‘naltirish, o‘zini tutish, muomala qilish, munosabat bildirish, psixologik talab va ko‘rsatmalarni bajarish, kasbiy qadriyatlarni anglash va qabul qilish, ma’lum kasbiy bilim, malaka va ko‘nikmalarni to‘la egallah, o‘z kasbiy ehtiyojlarini ta’minalash va kasbiy maqsadlarini ro‘yobga chiqara bilish, o‘z kasbi orqali jamiyat hayotida faol ishtirok etish, o‘z kasbi va jamiyat taraqqiyoti omillarini o‘zaro

³ O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni <https://lex.uz/docs/-5841063>

⁴ O‘sha joyda

bog‘lay olish hamda mana shu jamiyat taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘sha bilish kabilar nazarda tutiladi.

Oila va oilaviy tarbiya muammolari qadim zamonlardan beri insonlarni tashvishga solib keladi. O‘tmishning buyuk mutafakkirlari Platon, Aristotel, Ya.Kamenskiy, J. J. Russo va boshqalarning asarlarida ularning oilaga bo‘lgan ijobiy munosabatlari va fikrlarida ta’lim-tarbiyaning asosiy omili, shaxsning shakllanishi va kelajakdagi hayotidagi rolini baholaganlarini ko‘rish mumkin.

O‘rta Osiyoning yetuk qomusiy olimlaridan Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Al-Xorazmiylar o‘zlarining asarlarida va ilmiy-pedagogik faoliyatlarida insonning yetuk inson bo‘lib shakllanishida, o‘sib kelayotgan yosh avlodning rivojlanishi va yaxshi ta’lim-tarbiya topishiga jiddiy e’tibor berish muhimligi ko‘p bora ta’kidlangan. Jumladan, Abu Ali ibn Sinoning bilim, iroda va insonning rivojlanish jarayonidagi maqsadga intiluvchanligi, atrof-muhit ta’siri, axloqiy va mehnat tarbiyasi, muomala san’ati, bolalarni jamoada o‘qitish haqidagi g‘oyalari hozir ham nihoyatda muhim hisoblanadi. Al-Xorazmiy esa farzandlar ta’lim-tarbiyasida savol-javob metodi orqali bilimlar qo‘lga kiritilishi, bu jarayonda saks boshqalar bilan munosabatga kirishishi va jamiyatning faol a’zosiga aylanishini ta’kidlagan⁵.

XX asr marifatparvarlaridan hisoblangan Hamza Hakimzoda tarbiyaga eng kuchli ta’sir qiluvchi omillarga muhit va oilani kiritgan. U go‘dakning kelajagi, undagi hislarning, dunyoqarashning rivoji va boshqa ijtimoiy psixologik vazifalar uni o‘rab turgan atrof-muhit va turmush tarziga bog‘liqligini takidlagan. Uning fikricha oilaning bola tarbiyasidagi o‘rnii bolani jamiyatda o‘zaro muloqotga kirishuvchan qilib tarbiyalashdan iboratdir. Hamza tarbiyada onaning ahamiyatini alohida ta’kidlaydi, chunki u bolalar bilan psixologik, ruhiy va biologik jihatdan eng ko‘p bog‘langan shaxsdir. U bolalarni e’tiborsiz yoki noto‘g‘ri tarbiyalaydigan ota-onalarni qoralaydi.

Oila inson mavjudligining zaruriy va asosiy omillaridan biridir. Inson bolaligidida oiladan nimani olgan bo‘lsa, uning ta’siri keyingi butun hayoti davomida saqlanib qoladi. Aynan oilada bolaning shaxsiyatining poydevori qo‘yiladi va u

⁵ Н. Эгамбердиева. Ижтимоий педагогика. Дарслик. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2009. – С. 111.

maktabga kirgunga qadar uning yarmidan ko‘pi shaxs sifatida shakllanadi⁶. Ma’lumki, shaxsning ijtimoiylashuv jarayoni uning umr bo‘yi davom etadi. Shu bilan birga, turli yosh bosqichlarida u o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘ladi. Buning sababi shundaki, ijtimoiylashuv qadriyatlar va jamiyatdagi me’yorlarni o‘zlashtirish jarayoni sifatida insonning yosh psixologiyasiga hamda uning ijtimoiy va mehnat faoliyatni bosqichlariga qarab rivojlanib boradi. Biroq, axloqiy sotsializatsiyaning o‘ziga xos boshlang‘ich nuqtasi, uning doirasida dunyoga nisbatan qadriyat yo‘nalishlari shakllanadi, bu insonning erta bolalikdan boshlab, odamlarning ijtimoiy xulq-atvori, muloqoti va o‘zaro ta’siri normalarini o‘zlashtirishi jarayonidir.

Oila – kichik ijtimoiy guruh bo‘lib, uning a’zolari nikoh yoki qarindoshlik munosabatlari, umumiylayot va o‘zaro ma’naviy javobgarlik hissiga ega bo‘lishadi. Uning ijtimoiy zarurati jamiyatning jismoniy va ma’naviy ko‘payish ehtiyojlari bilan belgilanadi. Jamiyat va uning ijtimoiy holati ko‘plab oilaviy munosabatlarni ifodalaydi. T. V. Andreeva⁷ning fikricha, “Oila va bola bir-birining oynadagi tasviridir. Chunki, boshqa joyda shakllanmaydigan fazilatlar aynan oilada shakllanadi”. Oila bolaning ijtimoiylashuvi sodir bo‘ladigan dastlabki odamlar jamoasi vazifasini bajaradi. Bolaning ijtimoiylashuv jarayoni oila bilan tugamaydi. Kelajakda unga boshqa ijtimoiy institutlar ta’sir qiladi. Biroq, bolaning ijtimoiy rivojlanishi uchun oilani uyning poydevoriga qiyoslash mumkin.

Oila shaxsni ijtimoiylashtirish va sog‘lom turmush tarzini tarbiyalashning eng muhim institutidir. Aynan oilada insonlar jamiyat bilan o‘zaro munosabatlarning dastlabki tajribasiga ega bo‘ladilar. Oilani shaxs uchun asosiy hayot tarbiyasining namunasi va shakli sifatida ko‘rish mumkin.

Bola o‘sib-ulg‘ayib borar ekan jamiyatga, atrof-muhitga, voqealashuviga asta-sekin ko‘nikib, moslashib boradi. Insonning ko‘nikish reaksiyasi shakllari ijtimoiy adaptatsiya sifatida aniqlanishi

⁶ Namozova O‘.A. Oilada muloqot madaniyatini rivojlanirishning ijtimoiy-pedagogik mohiyati // Markaziy Osiyoda jamiyat, gender va oila. – Toshkent. Mahalla va oila, 2023. №4. – 119 b.

⁷ Маматов, О. В. Семья как важнейший институт социализации / О. В. Маматов. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2014. — № 6 (65). — С. 865-867.

lozim. Boshqa tirik mavjudotlardan farqli o‘laroq, inson ijtimoiy muhit o‘zgarishlariga ko‘nika olishi va bu holatlar uchun yurish-turish reaksiyalarini ishlab chiqishi lozim.

Adaptatsiya – organizmning tashqi muhit bilan adekvat aloqalarning shakllanish xususiyati. Shuningdek, adaptatsiya organizm faoliyatini tashqi muhit ehtiyojlari qarab o‘zgartirish qobiliyati hamdir.

Bolaning ijtimoiylashuvi, xususan, insonning ijtimoiy moslashuvi uning bilishga bo‘lgan obektiv ehtiyoji jarayonida paydo bo‘ladi. Biroq bu bilan uzviy ravishda bolada boshqa bir obektiv ehtiyoji – o‘ziga xoslikni namoyon qilish hissi ham shakllanadi. Bola uni yuzaga chiqarish uchun turli usul va vositalarni qidira boshlaydi va buning natijasida uning individuallashuvi ro‘y beradi. Shaxsning faqat o‘ziga tegishli bo‘lgan ijtimoiy ahamiyatga ega xislatlari individual tarzda namoyon bo‘ladi, uning ijtimoiy xulq-atvori esa takrorlanmas jihatlarga ega bo‘ladi.

Bola ijtimoiylashuvining yetakchi vositalari: muloqot (ota-on, oila a’zolari, tengdoshlar va boshqalar) hamda faoliyat (o‘yin, o‘qish, ijod, sport kabilalar)dir. Muloqot – odamlar o‘rtasida hamkorlik faoliyati ehtiyojidan yuzaga keladigan va axborot almashinuvi, o‘zaro ta’sirning yagona yo‘lini ishlab chiqish, boshqa odamni idrok qilish va tushunishdan iborat bo‘lgan aloqalarni o‘rnatish va rivojlatirishning murakkab, keng qamrovli jarayoni. Faoliyat — kishilarning tashqi olamga faol munosabati shakli, insonning o‘zini o‘zi maqsadga muvofiq tarzda o‘zgartirish usuli, inson borlig‘ining muhim xususiyatlaridan biridir. Psixologik-pedagogik tadqiqotlar jarayonida turli yosh davrlariga xilma-xil faoliyat turlari mos kelishi aniqlangan. Bolaning barqaror rivojlanish uning eng muhim shartlaridan biri muloqotdir. Muloqot va faoliyatning yetakchi turlariga nisbatan quyidagi yosh davrlari qo‘llaniladi:

- 1) go‘daklik davri – bevosita hissiy-ruhiy;
- 2) go‘daklikdan keyingi davr – predmetli faoliyat;
- 3) maktabgacha davr – rolli o‘yinlar;
- 4) ilk maktab davri – o‘quv faoliyati;
- 5) o‘smirlilik davri – kasb ta’limi faoliyati;
- 6) o‘spirinlik davri – shaxsiy muloqot faoliyati.

Ushbu yosh davrlarining har birida bolaning jamiyatga moslashishi bosqichma-bosqich shakllanib, rivojlanib boradi.

Yakuniy qism. Oila va u bilan bog‘liq masalalar, oilada farzand tarbiyasi, shuningdek, oila farovonligi omillari, oilaviy qadriyatlar azal-azaldan o‘zbek xalqi hayotida eng muhim qadriyatlar qatorida sanalib kelgan. Har bir shaxs o‘zi yashayotgan jamiyatning to‘laqonli a’zosi bo‘lishida avvalo ota-onasi, o‘qituvchisi, oila a’zolari, qarindoshlari, do’stlarining katta ta’siri bor. Aynan ota-onasi va boshqa yaqin insonlarning ibratli shaxsiy namunalari farzandlar ijtimoiylashuviga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bundan tashqari ijtimoiylashuv jarayoniga hozirgi

jadal rivojlanayotgan davrda televideniya, internet tarmog‘i va ijtimoiy tarmoqlar ham ta’sir qilmay qolmaydi. Shunday ekan ota-onasi va oila a’zolari bola uchun shaxsiy namuna ko‘rsatishi, uning ta’lim-tarbiyasiga jiddiy e’tibor qaratishi va keljakda barkamol shaxs sifatida shakllanisiga mas’uliyat bilan yondashishi lozim. Zero, mamlakat kelajagi va istiqboli yosh avlodning har tomonlama bilimli, barkamol, vatanparvar va mehnatkash bo‘lib shakllanishida ota-onasi va oilaning o‘rnini beqiyos.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni <https://lex.uz/docs/-5841063>
2. Н. Эгамбердиева. Ижтимоий педагогика. Дарслик. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2009. – С. 111.
3. Бегматова Д.М. Оиласда ёшларнинг касбий ижтимоийлашувини таъминлашнинг педагогик шартшароитлари. (PhD)... дис. – Самарқанд.: 2019. – 201 б.
4. Namozova O‘.A. Oilada muloqot madaniyatini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik mohiyati // Markaziy Osiyoda jamiyat, gender va oila. – Toshkent. Mahalla va oila, 2023. №4. – 119 b.
5. Маматов, О. В. Семья как важнейший институт социализации — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2014. — № 6 (65). — С. 865-867.

**“OILA VA XOTIN-QIZLAR” ILMUY-TADQIQOT INSTITUTI
НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ИНСТИТУТ «СЕМЬИ И ЖЕНЩИН»
“FAMILY AND WOMEN” RESEARCH INSTITUTE**

MARKAZIY OSIYODA JAMIYAT, GENDER VA OILA

*Общество, гендер и семья в Центральной Азии
Society, Gender and Family in Central Asia*

x a l q a r o i l m i y j u r n a l i

*международный научный журнал
international academic journal*

2024/1 (10)

DOI: 26739/2118-9998

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining 2021-yil 18-iyundagi 0996-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma”si olingan.

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar RO ‘YXATI (2019)ga pedagogika, psixologiya, tarix va falsafa fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari himoyasi uchun ilmiy maqolalar e’lon qilinishi mumkin bo‘lgan jurnal sifatida ro‘yxatga olingan.

MUASSIS:

“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti

JURNAL TAHRIRIYATI:

Bosh muharrir: **Egamberdiyeva N.**

Bosh muharrir o‘rinbosari: **Musurmanova A.**

Mas’ul kotib: **Mavlonov B.**

Muharrirlar: **Yunusov U., Nomozova O‘.,**

Razzakova N., Sobirova E.,

Jabborov U.

Sahifalovchi: **Umaraliyev Z.**

Dizaynerlar: **Abdullayev L., Sobirov F.**

Web dizaynerlar: **Yakubov O., Alimova Z.**

Jurnaldagи materiallardan foydalانilganda mualliflik huquqini e‘tiborga olgan holda jurnalga havola berilishi shart.

Jurnalga kiritilgan maqola materiallari mazmuni mualliflarning shaxsiy ilmiy-nazariy yondashuvi va qarashi sifatida talqin qilinadi.



1940

Nashriyot ro‘yxat raqami № 1043191. 24.09.2021-y.

Bosishga ruxsat etildi: 23.03.2024.

“Times New Roman” garniturasi. Qog‘oz bichimi: 60x84 1/8

Nashriyot bosma tabog‘i 7,2.

100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani,

M.Ismoiliy ko‘chasi 1-G uy.